IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Kenjayeva Marjona Komil qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Aniq fanlar oliy pedagogika maktabi
Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Tel nomer: +998 92.082-95-43
https://doi.org/10.5281/zenodo.20626864

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning hozirgi davr uchun ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek quyudagi mavzu yuzasidan asosli va tegishli xulosalar keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Ta’lim, fan, kreativlik, qobiliyat, raqamli texnologiya, kompyuter, Internet, interaktiv doska, multimedealar, raqamlashtirish,g‘oya,natija noutbuk.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность цифровых технологий в современную эпоху для дальнейшего развития творческих способностей учащихся на уроках технологий и повышения качества образования. Также представлены обоснованные и актуальные выводы по данной теме.
Ключевые слова: Образование, наука, творчество, способности, цифровые технологии, компьютер, Интернет, интерактивная доска, мультимедиа, цифровизация, идея, результат, ноутбук.

Abstract: This article describes the importance of digital technologies in the current era in further developing students' creative abilities in technology lessons and improving the quality of education. It also presents reasonable and relevant conclusions on the following topic.
Keywords: Education, science, creativity, ability, digital technology, computer, Internet, interactive whiteboard, multimedia, digitization, idea, result laptop.

KIRISH

Jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrimizda biz ta’lim sohasining yutuqlarini raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqligi hamda ta’sir doirasining juda keng ko‘lamliligini ta’kidlab o‘tishimiz o‘rinli. Buning eng asosiy sababi shundaki, ta’lim sohasining an’anaviy jarayonlari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bog‘likni yanada mukammallashtirganligi deb hisoblasak, qolaversa dars jarayonlarini yanada jonlantirganligi, an’anaviy darslardan zerikkan o‘quvchilarda ham katta qiziqish uyg‘otganligidadir deb bemalol aytish mumkin. O‘quvchi uchun muhum bo‘lgan har bir fanni rivojlantirib borayotgan raqamli texnologiyalar ayniqsa amaliy darslarda, tasviriy san’at, musiqa va texnologiya fanlarida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bizga ma’lumki, mamlakatning rivoji va ravnaqiga hissa qo‘shadigan yetuk va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta’lim tizimining yuksalishiga bog‘liq bo’libgina qolmay, bu borada o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan ijodkor, tashabbuskor, har tomonlama yetuk shaxsni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Shunday ekan bunday shaxsni voyaga yetkazish uchun sifatli ta’lim juda zarur. Ta’lim sifatini oshirish uchun

raqamli ta'limdan foydalanish ayni muddao. Raqamli texnologiya har bir o'quvchida qiziqish uyg'otibgina qolmay, kreativlik qobiliyatni yuzaga chiqarib, o'quvchida ijodiy tasavvurni paydo qiladi. O'z navbatida o'quvchi tinglagan nazariy ma'lumotni interaktiv doska orqali ko'rib fikr va g'oyalarini jonlantiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalar, multimedea vositalari, ta'limiy ilovalar, va virtual muhutlardan foydalanish bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlanitirishda muhum asos bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, yangi g'oyalar yaratish kabi qobiliyatlari tahlil qilingan va kutilgan natija erishilinayotganligi tahsinga sazovordir.

ASOSIY QISM

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni oson yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini hamda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy rolni o'ynaydi. Ular an'anaviy dars jarayonini interaktiv va qiziqarli loyihlar yaratishga aylantira oladilar.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi muhum va asosiy imkoniyatlari quyidagilardir:

✓ Interaktiv muhut: Raqamli doskalar (masalan Miro, Padlet) guruh bo'lib ishlashda ya'ni jamoaviy loyihalarda g'oyalarini erkin ifoda etish va kreativ yechimlar topishga yordam beradi.

✓ Rabotatexnika va sun'iy intellekt(Al) : Arduino va LEGO Education singari platformalar ko'magida o'quvchilar faqat nazariya o'ragnibgina qolmay, balki qo'llari bilan mexanizmlarni yasab, ularni dasturlashtiradilar. Bu esa o'quvchilarning muhandislik va ijodiy salohiyatini yuksaltiradi.

✓ Multimedea yaratish: Canva, CapCut kabi vositalar orqali o'quvchilar o'z loyihalarini taqdimot qilishda dizaynerlik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Quyudagi vositalar o'quvchiga faqat tayyor ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki ijodkor va kashfiyotchi bo'lish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar:

✓ Mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
✓ Loyihaviy faoliyatni qo'llab - quvvatlaydi
✓ Hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi
✓ Innovatsion faoliyatga qiziqishni oshiradi

Texnologiya fanlarida qo'llaniladigan raqamli vositalar quyidagilar:

✓ Interaktiv doskalar
✓ 3D printer ter qqqterlar1
✓ Grafik va dizayn dasturlar
✓ Onlayn ta'lim platformalari
✓ Rabotatexnika to'plamlari

Texnologiya fani-amaliy mehnat, badiiy tafakkur va estetik tarbiyani birlashtiribgina qolmay, insonning madaniy saviyasini rivojlantirib, yaratuvchanlik, did va mahorat uyg'unligini ta'minlaydigan ta'lim yo'nalishidir. Texnologiya fanlarini raqamli vositalar bilan uyg'unligi esa o'quvchilarning divergent fikrlashlarini uyg'otadi. Ya'ni bitta mummoni hal qilishning bir nechta qobiliyatini shakllantiradi. Shunday ekan bundan ma'lum bo'ladiki, texnologiya fani madaniyat va san'at bilan ham chambarchas bog'liq fandir, o'z navbatida beixtiyor san'at esa kreativ ijodkorlik bilan bir butun hamohang tushunchalardir. Kreativ ijodkorlikni tug'ma qobiliyat emas, balki rivojlantiriladigan kompetensiyadir va raqamli texnologiyalar uning rivojlanish tezligini bir necha barobar oshirishi mumkinligi o'z tasdig'ini topib bormoqda. Raqamli texnologiya vositalarining aynan texnologiya fanlarida keng qo'llanilayotganligi o'quvchilarning "iste'molchi tafakkuri"dan, "yaratuvchi tafakkuri"ga o'tishini ta'minlaydi. Aynan shu vositalar texnologiya fanlarida shunchaki iste'molchidan, kreativ yaratuvchiga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda. O'quvchilar odatiy mahsulotdan an'anaviy foydalanish o'rniga, 3D

printer, mikrokontroller yoki dizayn dasturlaridan foydalangan holda o‘z mahsulotlarini yaratadilar. Bunday faoliyat esa kreativlikning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Bundan tashqari Raqamli texnologiyalar nafaqat kreativlikni rivojlantirmoqda balki, kreativlikning o‘zini ham yangi shaklda aylantirmoqda. Yana bir muhum jihati shundaki, raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilgan texnologiya darslari tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar virtual muhutda xato qilishdan kamroq qo‘rqadilar. Masalan, 3D modellashtirish dasturlarida mahsulotni yaroqsiz qilib qo‘yish xavfi deyarli yo‘qligi tufayli ular ko‘proq sinov va tajriba o‘tkazdilar va bu holat kreativ fikrlashning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar va tajribalar tahlili bilan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar orqali tashkil qilingan texnologiya darslari o‘quvchida beixtiyor qiziqish uyg‘otib, dars unumdorligini oshiradi, vaqtni anchagina samarali o‘tkazishni belgilaydi va eng muhimi xavfsizlik amaliyotidan VR shlemlar va simulyatorlar yordamida o‘quvchilar og‘ir stanoklarda (masalan, tokarlik yoki frezerlash) bilan ishlash, murakkab kulinariya jarayonlari yoki elektron sxemalarni yig‘ishni virtual muhutda xavfsiz o‘rganadilar.

Aytish joizki, chinakam ma’noda, zamonaviy davr talabi bo‘la olgan raqamli texnologiyalar ta’limda keskin burilishga sabab bo‘lib, o‘quvchilar bilim salohiyatini hamda kreativ ijodkorlik, ijodiy tafakkurini rivojlantirmoqda. Bu jarayon, o‘qituvchilardan ham yuqori bilim va tajriba talab etishi tabiiy. Raqamli vositalar bilan tashkil etilgan texnologiya darslari, an’anaviy metodli darslardan farqli ravishda yuqori natija ko‘rsatishi, ko‘zda tutilgan yutuqlarga erishishning muhim omilidir.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR.

1. G.I.Ishmuradova, A.A.Raxmatov “Texnologiya ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanma Qarshi “Intellekt” nashriyoti 2023.
2. M.Saidova”Ta’limda multimedea texnologiyalaridan foydalanish” Darslik - Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.-292 b.
3. Muslimov N.A.,Lutfillayev M. H. O‘zbekistonda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish muommolari va istiqbollari. - Toshkent:TDPU nashriyoti, 2022.
4. S.Bekmuridova. Texnologiya fanini o ‘qitishga yangicha yondashuv.Metodik qo ‘llanma – T “Delta print”, 2017.
5. Internet manbalari:www.ziyonet uz.